

AVLONIYNING HAYOT YO'LI

Mohinur Pardayeva Sobirjon qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Tabiiy fanlar fakulteti “Maktab menejmenti”
yo'nalishining 202-guruh talabasi
@Moonlight7Education
+998906671012

Annotatsiya:

O'zbek milliy adabiyoti va madaniy hayotida yuqori o'rinda turadigan jadidchi, ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi – Abdulla Avloniyning ijodiy faoliyati va hayot mashaqqatlari, erishgan yutuqlari va qilgan xayrli ishlari to'g'risida ushbu maqola yozildi va siz bular xususida maqolani o'qish jarayonida yanada batafsilroq ma'lumotlarga ega bo'lib borasiz. Zero, ulug' bobomizning hayot saboqlari biz kabi yosh avlod qalbida yanada shijoat uyg'otsa ajab emas.

Kalit So'zlar:

Adibning bolaligi, adibning kasbiy faoliyati, jadidchilik, yangicha maktablar, darsliklar.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlaridagi o'zbek milliy madaniyati va o'zbek milliy adabiyotining taniqli, zabardast namoyondalaridan biri, ma'rifatparvar bobomiz - Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida, hunarmand-to'quvchi Miravlon aka oilasida tavallud topgan. Bolaligi ko'pchilik qismi ruslar bo'lgan temir yo'l ishchilarining bolalari orasida va mahallada o'tdi. Yetti yoshda O'qchi mahallasidagi eski maktabga boradi va uni 1890-yilda tugatgach, shu mahalladagi madrasada tahsil oldi. Keyinchalik esa o'qishini Shayxontohurdagi madrasada davom ettirgan. Qish kunlarida o'qib, yozda mardikorlik bilan shug'ullangan Abdulla Avloniy, mustaqil mutolaa qilish uchun ham vaqt topardi va ushbu sevimli mashg'uloti bilan doimiy shug'ullanardi. Beg'ubor os'mirlik davrlari 15-16 yoshlarida yosh ijodkorda she'r yozishga bo'lgan muhabbat uyg'ondi va bu muhabbat o'z tarovatini tarata boshladi. Natijada Abdulla Avloniyning ilk she'riy mashqlari 1894-yilda yozildi.

Orenburg, Qozon, Tiflisda chiqib turadigan gazeta va jurnallarning doimiy kuzatuvchisi bo'lgan Avloniy – rus, fors va arab tillarini ham bilgan. U 1905-yildan boshlab o'z mashqlari bilan matbuot sahifalarida ko'rina boshladi. Biroz muddat o'tgach esa Abdulla Avloniy gazetachilik bilan ham shug'ullandi. 1906-yilda chiqa boshlagan “Xurshid”, “Taraqqiy” gazetalarida ishladi, ular yopilgach esa “Shuhrat” gazetasini chiqarishda bosh-qosh bo'di. 1907-yil 4-dekabrda Avloniy muharrirligida ushbu gazetaning birinchi soni chop etildi. Shoir ushbu gazetani o'z uyida - hozirgi Mirobod tumanida tayyorlab, bosmadan chiqargan. Bu albatta juda mashaqqatli ish edi. O'sha davr nashriyotlari hozirgidek avtomatik dastgohlar bilan ishlamagan, aksincha, barchasi qo'lda bosilardi. Sahifalari esa kompyuterda emas, balki yog'ochdan ishlangan qo'lbola harflar yordamida yozilardi. Gazetalarning har bir sahifasi shuncha zahmat bilan tayyorlanadigan bir paytda Abdulla Avloniyning tashabbus ko'rsatib “Shuhrat” gazetasini chop etishi – qisqa vaqt ichida uning ma'rifatparvar sifatida, hamda ijtimoiy-madaniy sohaning faol namoyondasi sifatida ham tanilishining sabablaridan biri bo'ldi. Shuningdek, Avloniy 1918-yilda Tukriston sho'rolar hukumatining birinchi gazetasi “Ishtirokiyun”ning birinchi muharriri bo'lgan.

Keyinchalik esa “Shuhrat” gazetasining ham, 1908-yildan chiqa boshlagan “Osiyo” gazetasining ham faoliyati to'xtatilgach, Avloniy Mirobod mahallasida maktabdorlik bilan shug'ullana boshlagan. U Mirobodda va Degrezliqda ochgan maktablar o'z davrining eng yetakchi va yangicha usulda tashkil etilgan maktablardan biri hisoblanardi. Ma'rifatparvar bobomizning shaxsan o'zlari ham ushbu maktablarda dars berganlar va ular uchun darsliklar yaratganlar. Shu bois ham ushbu maktablar boshqa maktablardan sezilarli darajada ajralib turgan va XX asrning boshlaridagi Turkiston madaniy hayotidagi eng muhim yangiliklardan biri maktab o'quv ishlaridagi o'zgarishlar bo'lgandi.

“Avloniy maktabi gumanistik va erkin tarbiya asosiga qurilgan, dunyoviy va ilg’or ilm-fanni bolalarga o’rgatishni o’z oldiga asosiy vazifa qilib qo’ygan, yoshlarni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralasha oladigan qobiliyatga ega bo’lishini ta’minlaydigan haqiqiy xalq maktabi bo’ldi”.

(1)

Jumladan, Abdulla Avloniy o’sha davr jadidchilik harakatiga qo’shib, Toshkentdagi mashhur jadidchilar qatoridan o’rin oldi. Sababi, faqatgina yangilik va islohotchilikka intiluvchi, xalq dardi bilan yashovchi, taraqqiyparvar va yengilmas ruhdagi milliy ziyolilargina “jadid” nomiga munosib edilar. Avloniy esa aynan shunday shaxs edi. Shuning uchun ham u jadidlar qatorida yelkama-yelka turib, millat va xalqni buzg’unchilik yoki parokandalikka emas, aksincha, ularning diniy va dunyoviy bilimlari, madaniyati, dunyoqarashini o’zgartirgan holda, xalqni qayta tarbiyalash, ko’zini ochish, ya’ni o’zligini anglatish, turmush tarzi, ma’naviyati va taffakurini yuksaltirishdek mushkul vazifaga bel bog’lagandi.

Bobomizning ushbu hikmatli fikrlari jadidlar uchun ham asosiy e’tiqod, shior va amaliy faoliyat dasturi bo’lib qolgan: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo najot, yo halokat – yo saodat, yo falokat masalasidir”.

Darhaqiqat, jadidchilarning millatimizni halokat va falokatdan asrab, saodat sari yetaklovchi tarbiyasi, o’sha paytda hukmron bo’lganlarning millatimizni ma’nan tobe qilib, jar yoqasiga eltuvchi tarbiyasi bilan mutlaqo teskari edi. Albatta bu o’z navbatida jadid bobolarimiz faoliyatida kuchli to’siqlar bo’lganligini anglatadi. Xalqparvar va zabardast bobomiz Abdulla Avloniy ham xalq saodati dardida aynan shunday qiyinchiliklarni boshdan kechirgani barchaga ayon.

O’tgan asrning 20-30-yillarida Sho’ro davlati buyrug’i asosida amalga oshirilgan qatag’onchilik siyosatida jadidchilik harakatining taniqli vakillari qatl etildi. Ozodlik va ma’rifat bayrog’i ostida birlashib harakat qilgan bobolarimiz nomi “xalq dushmani”, “millatchi” deb qoralandi. Ularning yaratgan asarlari xalqimiz qalbida vatan, erk tuyg’usini uyg’otishidan qo’rqan sovet hukumati, jadidlar asarlarini o’qishni ham taqiqlab qo’ygandi. Shunday bo’lsada, 1991-yil yurtimiz mustaqillikka erishgandan so’ng hurmatli birinchi prezidentimiz Islom Karimov milliy o’zlikni anglash va boy madaniy merosni qayta tiklashga alohida e’tibor qaratdilar. Jumladan, jadid bobolarimizga qo’yilgan qora ayblovlar olib tashlandi va ularning tabarruk nomlari qayta tiklandi. Salkam yetmish yil chang bosib yotgan bobolarimizning ulug’ meroslari dunyo yuzini ko’ra boshladi. Ularga bo’lgan cheksiz ehtirom bois, Islom Karimov tashabbuslari bilan “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi va “Qatag’on qurbonlari xotirasi” muzeyi tashkil etildi, hamda 31-avgustni “Qatag’on qurbonlarini yod etish kuni” sifatida nishonlash belgilab qo’yildi.

Qo’shimcha sifatida yana shuni ta’kidlab o’tish joizki, Abdulla Avloniy o’z hayotiy faoliyati davomida nafaqat ijod tomonlama balki, amaliy jihatdan ham bir qancha yo’llarni bosib o’tgan. 1909-yilda “Jamiyati xayriya” tashkilotini ochdi va mahalliy xalq bolalarini, shuningdek, yetim bolalarni o’qitish, savodini chiqarish maqsadida pul yig’ib maktablarga tarqatgan. 1913-yilda esa “Turon” jamiyatini ham ochadi. Bu jamiyatning asosiy vazifasi aholi o’rtasida san’atga qiziqish uyg’otish, xalq uchun spektakllar qo’yib berish va ular orqali insonlarga ma’naviy ozuqa berish, musiqa kurslari, klublar, kutubxona va qiroatxonalar ochish, o’quvchilarga moddiy yordam ko’rsatishdan iborat edi. Avloniy shu jamiyat qoshida “Turon” nomli teatrni ham tashkil etgan bo’lib, 10taga yaqin pyesani ozarbayjon tilidan o’zbek tiliga tarjima qilgan va 3ta yangi pyesa yozib, ularni sahnalashtirgan.

Abdulla Avloniy sovet davrida turli yuqori va ma’suliyatli lavozimlarda ishladi. Ammo, qaysi lavozimda ishlashidan qat’iy nazar, o’z maqsadidan qaytmadi, doimiy ilm-ma’rifat tarqatish, ta’lim-tarbiya masalalari bilan shug’ullanib keldi. 1919-1920-yillarda diplomatik vazifalarda ishladi. Bilim yurtlarida va maktablarda o’qituvchilik qildi. Toshkentdagi hamma yangi usul maktablar uchun Avloniyning kitoblari qayta-qayta nashr qilindi.

Bundan tashqari, o’tgan asrning 30-yillarida 7-sinf o’qish xrestomatiyasini tuzdi va nashr ettirdi. Ushbu xrestomatiyada o’sha paytdagi ko’plab o’zbek adiblari, rus va jahon adabiyotining yorqin namoyondalari haqida biografik ma’lumotlar, shuningdek, ularning asarlaridan jozibador namunalar ham keltirib o’tilgan. 1930-1934-yillarda esa O’rta Osiyo davlat universitetida kafedrani boshqargan edi. Avloniy 30yildan ortiq ijodiy faoliyat bilan shug’ullandi va bor bilim-salohiyatini

unga baxshida etdi. 1916-yildagi mardikorlik voqealariga ham, inqilobiy to'polon va ozodlik kurashlarining ham guvohi bo'lgan.

Qilgan fidoiyligi uchun 1927-yilda "Mehnat Qahramoni" unvoniga sazovor bo'lgan. "O'zbekiston xalq maorifi zarbdori" unvoni bilan esa 1930-yilda taqdirlangan.

Avloniy umr yo'lining va ijodining xalqimiz boy madaniyatidagi o'rni haqida so'z ketganda, asosan, 2ta muhim jihat ko'zga yaqqol tashlanadi:

Birinchisi – pedagogik faoliyat;

Ikkinchisi – adabiy-badiiy faoliyatdir.

Albatta, ushbu faoliyatlarning o'rni haligacha beqiyosligini yo'qotmagan, yo'qotmaydi ham.

O'zbek millatining yorqin namoyondasi Abdulla Avloniy 1934-yil 25- avgustda vafot etgan.

Xulosa o'rnida esa ma'rifat va taraqqiyot yo'lida tinim bilmay, bor kuch g'ayrati, umuman olganda butun umrini baxsh etgan buyuk siymolarimizdan bo'lmish Abdulla Avloniyning biz avlodlarga qoldirgan ulkan va qadrli merosi hamisha hayot maktabimizda bir qo'llanma sifatida asqotib kelmoqda. Avloniy kabi jonkuyar, xalqparvar, hamda o'z sohasining yetuk mutaxassisi, haqiqiy ustoz bo'lib yetishish orzusi biz kabi yoshlarni doimo ilhomlantirib turadi. Yana shuni ishonch bilan ayta olamizki, Abdulla Avloniy hayot kitobining nafaqat har bir sahifasi, balki har bir satri ham olam-olam ma'no-mazmunga, o'z xalqi va vataniga bo'lgan muhabbatga to'la bo'lgan desak, adashmagan bo'lamiz.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yhati:

1. "Ma'naviyat yulduzlari". /Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999.
2. Saviya.uz (1).
3. Daryo.uz.
4. 5- sinf "Adabiyot" darsligi II qism. / "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent, 2015.